

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAMAZONOV JAHONGIR DJALOLOVICH

**TALABA-YOSHLARDA AXBOROT ISTE'MOLI
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
психологических наук (DSc)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of
Psychological Sciences (DSc)**

Ramazonov Jahongir Djalolovich

Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik
xususiyatlari.....3

Рамазонов Жахонгир Джалолович

Психологические особенности формирования культуры потребления
информации у студентов-молодежи.....27

Ramazonov Jakhongir Djalolovich

Psychological features of the formation of a culture of information consumption in
student-youth55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....60

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAMAZONOV JAHONGIR DJALOLOVICH

**TALABA-YOSHLARDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/P274 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ganjiyev Feruz Furqatovich

psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ulug'ova Shahloa Musliddinovna

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova Dilafroz Sharifovna

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Elmuratova Aysulu Usaxovna

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «18 avgust» kuni soat 14:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57; e-mail: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «3» avgust da tarqatildi.

(2026-yil «3» avgust da 31 raqamli reestr bayonnomasi.)



A.M. Nazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Xaseynova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida axborotlashgan jamiyatga o'tish, ta'lim va ijtimoiy hayotning turli sohalarida media vositalaridan foydalanishning zamonaviy hamda kreativ texnologiyalarini amaliyotga joriy etish ustuvor tendensiyalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Global Media and Information Literacy (MIL) Assessment Framework tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda 16-25 yoshdagi yoshlarning 67 foizi kundalik axborotni asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali olishi, biroq ularning atigi 34 foizi axborot manbalarini tekshirish va qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalariga ega ekanligi aniqlangan. Reuters Institutining 2021-yildagi «Digital News Report» ma'lumotlariga ko'ra, 18-24 yoshdagi yoshlarning 79 foizi kundalik yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatadi, ularning faqat 29 foizi esa axborot manbalarining ishonchliligini muntazam tekshiradi. Shu bois xalqaro tashkilotlar tomonidan talaba-yoshlarda raqamli va media savodxonlikni rivojlantirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish hamda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga qaratilgan grant, loyihalar va ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda¹.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. TALIS (Teaching and Learning International Survey) tadqiqotlari hamda 2024-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda internetdan faol foydalanuvchilar soni 5,5 milliarddan oshgan bo'lib, ularning salmoqli qismini yoshlar tashkil etadi. Shuningdek, so'nggi tadqiqotlarda 15-24 yoshdagi yoshlarning 71 foizi kun davomida 8-10 soatgacha internetdan foydalanishi qayd etilgan. Mazkur holat talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning zamonaviy psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni axborot xavfsizligiga ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jihatdan tayyorlash, shuningdek, psixoprofilaktik choralar tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar zaruratini kuchaytirmoqda².

Respublikamizda so'nggi yillarda jamiyatning turli sohalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash, axborot savodxonligini oshirish, xavfsiz axborot muhitini shakllantirish, yoshlarni salbiy axborot ta'siridan himoyalash hamda talabalar o'rtasida internetga qaramlikning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilmoqda. «Media sohasini tizimli isloh qilish, axborot yetkazish samaradorligini oshirish hamda mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash» ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlik va axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda³.

¹ <https://www.unesco.org/>

² <https://www.oecd.org/>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6083381>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022-yil 22-avgustdagi «2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-sonli «Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴.

Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan: Harvard universiteti, Berkman Klein Center for Internet & Society bo'limi, (AQSh), Stanford universiteti, Digital Media Initiative bo'limi (AQSh), Massachusetts Texnologiya instituti (MIT) Media Lab bo'limi, (AQSh), University of Pennsylvania (Annenberg School for Communication) (AQSh), Oxford Universiteti, Oxford internet instituti (Buyuk Britaniya), London School of Economics (LSE) (Buyuk Britaniya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya) universitetlarida olib borilmoqda.

Jahonda talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Talaba-yoshlarda axborot iste'molining raqamli muhitdagi psixologik ta'sirlarini o'rganish orqali, ularning onlayn madaniyatini shakllantirish strategiyalari ishlab chiqilgan Harvard universiteti, Berkman Klein Center for Internet & Society (AQSh); raqamli media vositalaridan foydalanishning psixologik aspektlarini tahlil qilish orqali, talabalarning axborot iste'moli madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan Stanford universiteti, Digital Media Initiative (AQSh); yangi texnologiyalar va interaktiv platformalar orqali talaba-yoshlarda axborot iste'molining psixologik mexanizmlari ishlab chiqilgan Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) Media Lab (AQSh); talabalarning raqamli axborot muhitida kommunikatsiya jarayonlarini va psixologik reaksiyalari tahlil qilingan University of Pennsylvania (Annenberg School for Communication)

⁴ <https://cyber.harvard.edu/>, <https://www.stanford.edu/>, <https://www.media.mit.edu/>, <https://www.oii.ox.ac.uk/>, <https://www.lse.ac.uk/>, https://ec.europa.eu/info/horizon-europe_en, <https://www.annenberg.upenn.edu/>, <https://www.nyu.edu/>.

(AQSh); raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning virtual madaniyatini shakllantirish mexanizmlari o'rganilgan Oxford universiteti, Oxford internet institute (Buyuk Britaniya); ijtimoiy psixologiya va raqamli madaniyat kesishmasida talabalarning axborot iste'moli bilan bog'liq strategiyalari ishlab chiqilgan; raqamli axborot va media muhitida talaba-yoshlarning psixologik xususiyatlari o'rganilgan University of Cambridge (Buyuk Britaniya).

Jahonda talabalarda axborot iste'moli hamda virtual madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari muammolari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, talabalarning onlayn resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan emotsional holatlari, stress, bezovtalik va farovonlik darajasining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda o'zini namoyish etish usullari, shaxsiy brendni yaratish va ijtimoiy identitetning shakllanishini o'rganish, onlayn muhitda yuzaga kelayotgan ijtimoiy aloqalar, hamkorlik va integratsiya jarayonlari bilan birga, ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlik kabi muammolarni bartaraf etish, talabalar axborotni tanqidiy baholash, soxta yangiliklarni aniqlash va ishonchli manbalarni ajrata bilish ko'nikmalari rivojlantirish, onlayn ta'lim va masofaviy ishlash sharoitida talabalarning psixologik moslashuvchanlik darajasini takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganish muammolari bo'yicha mamlakatimiz pedagog-psixolog olimlaridan S.N.Arifxanova, E.A.Do'sanov, S.Y.Kulatova, O.Sh.Muxtarov, D.G.Muxamedova, U.H.Sayitova, Z.T.Nishanova, J.J.Obloqulov, U.D.Qodirov, S.B.Qosimova, I.I.Raximova, O.M.Zaripov, S.D.Sharapova va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁵.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.M.Bondarovskaya, H.I.Bochkareva, A.E.Voyskunskiy, T.N.Dudko, A.Fyodorov,

⁵ Arifxanova S.N. Internet tarmog'ida yoshlar auditoriyasiga ta'sir qilishning destruktiv usullari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 140 b.; Do'sanov E.A. "Mahallada o'smirlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2022. - 37 b.; Kulatova S.Y. Voyaga yetmaganlarda psixologik axborot xavfsizligini ta'minlashning shaxslilik xususiyatlari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 136 b.; Mukhamedova D.G. Psychological aspects of addiction to social media, computer and computer games //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. - 2020. - T. 24. - №. 2. - C. 319-324.; Muxtarov O.Sh. Yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik usullari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 132 b.; Sayitova U.H. "Talabalarda internetga tobelikni oldini olishning psixologik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi - Buxoro., 2024. - 95 b.; Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.; Obloqulov J.J. Axborot globallashuvi jarayonida o'spirinlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarning psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 140 b.; Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi, 2020 y. - 250 b.; Qosimova S.B. Talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2023 y. - 132 b.; Рaxимова И.И. Особенности зависимости от компьютерных игр. // Докторская диссертация (PhD). психол. наук. - Т.:ТДПУ, 2017. - 24 с.; Zaripov O.M. Yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 140 b.; Sharapova S.D. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanlanganligining ijtimoiy-psixologik jihatlari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 140 b.

A.Milyutina, A.Veryaev, V.Protopopova, Y.Nikitina, I.Fateeva, G.Onkovich, L.Zaznobina, N.Zmanovskaya va boshqalar mediasavodxonlikni tuzilishi va ijtimoiy xarakteri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.I.Aliferova, A.Taras, O.P.Berezkina, M.B.Bogdanova, A.A.Bochevar, N.Bugayova, V.V.Vasilkova, M.G.Voxrisheva, L.S.Vigotskiy, Yu.N.Dolgov, A.S.Kopovoy, V.V.Znakov, A.V.Kirilenko, E.N.Lajinseva, V.M.Smirnov, A.I.Nenashev, A.N.Plyush va boshqa olimlar⁶ postmodernizmning asosiy qoidalaridan kelib chiqqan holda virtual voqelikni sun'iy ravishda yaratilgan muhit sifatida ilmiy tadqiq etishgan.

Xorij psixologlaridan D.H.Dodd, R.E.Fancher, J.Gilford, U.Neisser, W.Schneider, S.Spearman, E.P.Torrance, M.A.Wollach, N.Kogan, M.Castells va boshqalar⁷ ijtimoiy makonda virtual voqelikka xos psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganish aniqlash va uni ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁶ Алифорова Л.И. Информационная культура молодёжи // Психологический журнал. 2006. № 5. 327-336 стр.; Анатолий Тарас. Методы и приёмы психологической войны. – Минск: “АСТ”, “Харвест”. 2006.; Березкина О. П. Социально-психологическая воздействия СМИ. / О.П. Березкина. - М.: Изд-й центр: «Академия», 2008. – 240 с.; Богданова М.В. Психологические защитные механизмы (к пониманию взаимозависимости защитных систем: психологической и иммунной) // Вестник Тюмень ГУ. - 2005.- № 3. – С. 14-18.; Бочевар А.А. Интернет как новая среда для проявления девиантного поведения подростков //Вопросы психологии. 2015. - № 4., 127-136 стр.; Бугаёва Н. Перспективы развития цифровых технологий и их влияние на трансформацию личности. Заонавий психология: муаммолар ва истикболлар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари – Тошкент, 2021, – 376 б. – Б. 283-287.; Василькова В.В. Деструктивное воздействия информации. –СПб.: «Наука», 2005. 140 с.; Вохрышева М.Г. Информационная культура. Учебное пособие. - Самара, 2004. - 123 с.; Выготский Л.С. Психология развития человека. - М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. - 123с.; Долгов Ю.Н. Коповой А.С., Малюченко Г.Н., Смирнов В.М. Развитие культуры медиапотребления: социально-психологический подход. Саратов: Изд-во Саратовского университета, 2009. 208 с.; Смирнов В.М. Психология медиа-безопасности: учебное пособие /– Саратов: Издательство «Саратовский источник», 2012. - 224 с. Знаков В.В. Понимание и переживание москвичами террористической угрозы. //Вопросы психологии. 2010. № 4. – С.64-74.; Кириленко А. В. Основы информационной культуры. Учебное пособие. – СПб.: С-ПбГУ ИТМО, 2008.; Лажинцева Е.Н., Бочевар А.А. Интернет как новая среда для проявления девиантного поведения подростков //Вопросы психологии. 2015. - № 4.; Ненасhev А. И. Заонавий жамиятнинг ахборот макони: коммуникацион аспект: Дисс. ... фил. фанлари номзоди / А. И. Ненасhev. - Саратов, 2009. – 141 бет.; Плющ А.Н. Механизмы информационной воздействия. /А.Н. Плющ /Развитие современной культуры: Сборник материалов международной конференции 2015 год 25 ноябрь /Г. О. Королев, МГОТУ /Под общ. Ред. В. А. Смирнова. - М., 2016. –С. 323-328.

⁷ Dodd D. H., White R. M. Cognition: Mental structure and processes. Boston: Allyn and Bacon, Inc.1980; Fancher R.E. The intelligence men: Makers of the IQ controversy. N.Y. Norton, 1985.; Guilford J.T. The nature of Human intelligence. N.Y.Mc. Graw-Hills, 1967. 538 p. 9.; Neisser U. etc. Intelligence: Knowns and Unknowns American Psychologist. 1996. V.51№ 2.P.77-101.; Schneider W. Acquiring expertise: Determinants of exceptional performance. In: International handbook of Research and Development of Giftedness and Talent. Oxford: Pergamon. 1990. P.311-324.; Spearman C. The abilities of man. N.Y., 1927.; Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in its testing. The nature of creativity. N.Y.Cambridge Univer Press, 1988. P.43-75.; Wollach M.A., Kogan N.A new look of the creativity-intelligence distinction. J. of Personality. 1965. V. 33. № 3. P. 348-369.

talabalar axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

talabalar axborot iste'moli madaniyati xususiyatlarini aniqlashtirish;

talabalarda virtual madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy makonni autent baholashning rivojlanishiga intensiv ta'siri sabablarini tahlil etish;

axborot iste'moli madaniyatining ijtimoiy-psixologik faktorlarini integratsiyasini tahlil qilish;

talabalar axborot iste'moli va virtual madaniyatning psixologik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro pedagogika institutidan 120 nafar, Buxoro davlat universitetidan 80 nafar, Qarshi davlat universitetidan 60 nafar hamda Samarqand davlat universitetidan 80 nafar, jami, 340 nafar talabalar respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, Y.N.Dolgova, A.S.Kopova, G.N.Malyuchenko, V.M.Smirnovlarning «Informatsion faoliyatning motivatsion strukturasi bo'yicha so'rovnoma»si, K.Plutchikning «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so'rovnomasi», G.V.Lofovyaning «Addiksiyani aniqlash testi», K.Yang tomonidan ishlab chiqilgan V.Loskutova tomonidan modifikatsiya qilingan «Internetga qaramlikni o'rganish so'rovnomasi», N.A.Zaremboning «Sanogen tafakkur darajasini aniqlash testi» hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan «Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma»dan (F.F.Ganjiyev, J.Dj.Ramazonov) foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining iste'mol madaniyatini namoyon bo'lishida turli axborot manbalarini topish, ularni aniqligi va dolzarbligini tekshira olish, ulardan didaktik maqsadda foydalanish, birlamchi axborotni ikkilamchi ma'lumotdan ajratib olish, internet-resurslardan foydali axborot topish, virtual muloqotga bog'lanib qolmaslik ko'nikmasini hamda ta'limiy axborotlarga motivatsion-qadriyatli munosabatni shakllanganligiga ko'ra differensial farqlarning mavjudligi dalillangan;

talabalarining axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda virtual muloqot bilan bog'liq kommunikativ va relaksatsion motivlar tahliliy fikrlashga, kognitiv motivlar esa kiberimmunitetni faollashtiruvchi axborotni boshqarish ko'nikmasiga ta'sir etganligi tufayli informatsion faoliyat motiviga ustuvorlik berish muhim ekanligi isbotlangan;

talabalardagi ustuvor psixologik himoya mexanizmlariga ko'ra, ma'lumotlarga nisbatan tahliliy fikrlash proyeksiyalashni, axborotlar oqimini boshqarish intellektualizatsiyani, ma'lumotlarni ijtimoiy integratsiyalashdagi qiyinchiliklar esa regressiyani faollashuviga olib kelganligiga asoslanib axborot iste'moli madaniyatining differensial psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish uchun internet va

kompyuterga qaramlik shaxsdagi virtual ma'lumotlarni tahlil qilish, axborotlar oqimini boshqarish va saralash ko'nikmasini pasaytirib, veb-syorfingga bog'liq ravishda muloqotdagi psixologik to'siqlarni kuchayishiga olib kelganligi tufayli addektiv xulqqa korreksion ta'sir etish zarurati asoslangan;

talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda virtual ma'lumotlarni qidirish, saralash, ularni ahamiyatlilik darajasini hissiy baholash hamda ular bilan ishlash qobiliyati, axborot xavfsizligini ta'minlashning konstruktiv strategiyalarini tanlash ko'nikmasini rivojlantirish muhimligiga ko'ra, shaxsga sotsial ta'sirning «kognitiv-emotsional-motivatsion-ijtimoiy-psixologik» mexanizmini psixokorreksion faoliyatga singdirish zarurligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalar o'rtasida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini o'rganishga doir test va so'rovnomalar amaliyotga joriy etilgan;

talabalar axborot iste'moli madaniyatini shakllantiruvchi psixologik omillarni aniqlash, mediasavodxonligini rivojlantiruvchi vaziyatlar kontent tahlil qilingan;

talabalar o'rtasida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bo'yicha psixologik trening tayyorlangan va uning samaradorligi amaliyotda sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni aniq qo'yilganligi, tanlangan metodikalarning validligi, to'plamning reprezentativligi, natijalarning ishonchliligi, qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi (korrelyatsion tahlil, Styudentning t-mezoni) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalar o'rtasida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bo'yicha tayyorlangan trening dasturini ishlab chiqish bilan belgilanadi, bundan tashqari talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillari, ichki mexanizmlari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek, tadqiqot materiallari talaba axloqiy-motivatsion sohasida munosabatlarini belgilovchi motivlar to'g'risidagi ilmiy bilimlarni hamda «Pedagogik psixologiya», «Ochiq axborot tizimida psixologik xavfsizlik», «Psixodiagnostika», «Psixologik maslahat» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot doirasida treninglar majmuini oliy ta'lim muassasalarini amaliyotiga tadbiq etilishi orqali, talabalar shaxsini psixologik jihatdan mukammal yondashishida, ularda dunyoqarashini shakllantirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin. Shu bilan birga, amaliy faoliyatda talabalarining o'quv faoliyatini faollashtirishda, psixologik maslahat, psixodiagnostika, psixokorreksiya vazifalarini amalga oshirishda tadqiqot ishi natijalari va metodik materiallari manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari» yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining iste'mol madaniyatini namoyon bo'lishida turli axborot manbalarini topish, ularni aniqligi va dolzarbligini tekshira olish, ulardan didaktik maqsadda foydalanish, birlamchi axborotni ikkilamchi ma'lumotdan ajratib olish, internet-resurslardan foydali axborot topish, virtual muloqotga bog'lanib qolmaslik ko'nikmasini hamda ta'limiy axborotlarga motivatsion-qadriyatli munosabatni shakllanganligiga ko'ra, differensial farqlarning mavjudligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-396-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-396a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-yoshlarda axborot-psixologik immunitetni rivojlantirish, ya'ni ularni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish qobiliyati takomillashtirilgan;

talabalarining axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda virtual muloqot bilan bog'liq kommunikativ va relaksatsion motivlar tahliliy fikrlashga, kognitiv motivlar esa kiberimmunitetni faollashtiruvchi axborotni boshqarish ko'nikmasiga ta'sir etganligi tufayli informatsion faoliyat motiviga ustuvorlik berishiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-396-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-396a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalari rivojlantirilgan;

talabalardagi ustuvor psixologik himoya mexanizmlariga ko'ra, ma'lumotlarga nisbatan tahliliy fikrlash proyeksiyalashni, axborotlar oqimini boshqarish intellektualizatsiyani, ma'lumotlarni ijtimoiy integratsiyalashdagi qiyinchiliklar esa regressiyani faollashuviga olib kelganligiga asoslanib axborot iste'moli madaniyatining differensial psixologik xususiyatlari aniqlanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-396-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-396a-son ma'lumotnomasi). Natijada psixologik xavfsizlikni ta'minlash, ya'ni ularning aqliy va hissiy holatini barqaror saqlash, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirilgan;

talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish uchun internet va kompyuterga qaramlik shaxsdagi virtual ma'lumotlarni tahlil qilish, axborotlar oqimini boshqarish va saralash ko'nikmasini pasaytirib, veb-syorfingga bog'liq ravishda muloqotdagi psixologik to'siqlarni kuchayishiga olib kelganligi tufayli addektiv xulqqa korreksion ta'sir etish zarurati asoslanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-396-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-

ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-396a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-yoshlarda axborotni qabul qilish madaniyatini shakllantirish, ya'ni axborotni tanlash, tahlil qilish va undan foydali xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlantirilgan; talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda virtual ma'lumotlarni qidirish, saralash, ularni ahamiyatlilik darajasini hissiy baholash hamda ular bilan ishlash qobiliyati, axborot xavfsizligini ta'minlashning konstruktiv strategiyalarini tanlash ko'nikmasini rivojlantirish muhimligiga ko'ra, shaxsga sotsial ta'sirning «kognitiv-emotsional-motivatsion-ijtimoiy-psixologik» mexanizmini psixokorreksion faoliyatga singdirilishi zarurligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-396-son buyrug'i bilan «Psixologik trening asoslari» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-396a-son ma'lumotnomasi). Natijada raqamli muhitda ta'lim jarayonini tashkil etishda virtual pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ya'ni o'qitish va o'rganishning yangi usullarini joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 2 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 1 ta monografiya, 22 ta ilmiy maqola, shulardan 10 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, o'n ikkita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 280 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining nazariy konseptual asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida axborot iste'moli madaniyati fenomenining mazmun-mohiyati, vazifalari, psixologik mexanizmlari, xulq-atvorda namoyon bo'lish xususiyatlari hamda shakllarini ifodalovchi asosiy nazariy tushunchalar tahlil qilingan. Shuningdek, talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish muammosiga oid ilmiy manbalar va konseptual yondashuvlar o'rganilib, mazkur jarayonning psixologik jihatlari yoritilgan.

Mazkur bobda talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan izlanishlarning nazariy

hamda empirik natijalari tahlil etilgan. Axborot madaniyati, virtual madaniyat va axborot tahdidlarining shaxsga ta'siri masalalari bo'yicha o'zbek olimlaridan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, A.M.Nazarov, Sh.F.Mustafaeva, Z.T.Nishonova, J.J.Obloqulov, R.S.Samarov, K.A.Farfieva, B.S.Shukurov, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, M.B.Nusratova, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.S.Antyushin, A.G.Karajani, P.A.Korchemniy, P.I.Chijik, V.T.Yusov, A.T.Yanakov, V.P.Vishnevskaya, M.I.Maryin, I.B.Lebedev, I.A.Bayeve, I.V.Abakumova, A.G.Asmolov, V.V.Semeykin, shuningdek, xorijiy tadqiqotchilardan G.Gerbner, S.Grinfeld, G.Gigerenzer, V.Davidov, B.Lomov, R.Plutchik, K.S.Yang, M.I.Drepa va boshqalarning ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning tadqiqot muammosiga oid konseptual yondashuvlari umumlashtirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari»** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish usullari, psixologik tamoyillari, axborot iste'moli madaniyatining komponentlari yoritib berilgan.

1. Ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi – talabalarda axborot iste'moli madaniyatining shakllanishida ijtimoiy guruhga mansublik hissi va ijtimoiy ta'sir vositasida axborotdan ongli foydalanish shakllantiriladi.

2. Normativ tartibga solish mexanizmi: talabalarda guruh normalari va ijtimoiy muhit ta'siri ostida axborot iste'moli madaniyatiga oid xatti-harakatlarni rivojlantirish orqali axborot muhitida psixologik xavfsizlik va ijobiy xulq shakllanadi.

3. Kommunikativ mexanizm: talabalarining virtual muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirlari, axborot almashinuvi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish orqali axborot iste'molining samarali va madaniyatli shakli shakllantiriladi.

4. Identifikatsiya va referent guruhlar mexanizmi: Talabalarining referent guruhlariga taqlid qilish orqali virtual makonda axborot iste'moliga oid xatti-harakatlarini shakllantirish, o'zini anglash hamda shaxsiy identifikatsiyani rivojlantirish jarayonlari amalga oshiriladi.

5. Refleksiya va teskari aloqa mexanizmi: talabalarda axborot iste'moliga doir xatti-harakatlarini o'zini-o'zi tahlil qilish, refleksiv baholash va qayta fikrlash orqali virtual madaniyatga moslashuv va uning samaradorligini oshirish ta'minlanadi.

Ushbu bobda tadqiqotimiz muammosidan kelib chiqqan holda, talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlash tadqiqot maqsadi etib belgilangan. Tadqiqotning ilmiy-nazariy, uslubiy va metodologik vazifalari belgilanib, ularni ketma-ketlikda va bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashning metodologik asoslari, qo'llanilgan metodikalar tasnifi, tadqiqotni o'tkazish tartibi, konsepsiya hamda tamoyillar batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning empirik asoslari»** deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo'lib, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

Dastlab, tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan «Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma»si orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma»si orqali olingan natijalar (n=340)

Omillar	O'rtacha (M)		Farqlar	
	2-bosqich (n=180)	4-bosqich (n=160)	t	p
Tahliliy fikrlash	5,4	7,6	-2,7	0,05
Axborot boshqaruvi	4,8	6,8	-2,5	0,05
Axborot integratsiyasi	5,1	8,2	-2,4	0,05

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» natijalari tahliliga ko'ra, «tahliliy fikrlash» ($t=-2,7$; $p\leq 0,05$), «axborot boshqaruvi» ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$) hamda «axborot integratsiyasi» ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$) omillari bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi.

«Tahliliy fikrlash» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etilgani ($t=-2,7$; $p\leq 0,05$) ularning axborot iste'moli jarayonida murakkab va ko'p mazmunli ma'lumotlarni tahlil qilish, muhim jihatlarni ajratish hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalari rivojlanganini ko'rsatadi. Ta'limning yuqori bosqichiga o'tgan sari nazariy bilim va amaliy tajribaning o'zaro uyg'unlashuvi axborot mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, katta hajmdagi axborot oqimidan asosiy g'oyani ajratib olish, muhim faktlarni umumlashtirish va ularni tanqidiy baholash tahliliy fikrlashning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu jihatdan, 4-bosqich talabalaridagi yuqori ko'rsatkichlar axborot iste'moli madaniyatining ta'limiy tajriba, kognitiv rivojlanish va mustaqil fikrlash ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi.

«Axborot boshqaruvi» omili bo'yicha ham 4-bosqich talabalarida yuqori natijalar aniqlangan ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$). Bu ularning virtual va real axborot muhitidagi ma'lumotlarni saralash, tizimlashtirish, rejalashtirish hamda maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalari nisbatan rivojlanganligini anglatadi. Mazkur bosqichda talabalarining bitiruv ishlari, ilmiy izlanishlar va yakuniy nazorat jarayonlarida ko'plab axborot manbalari bilan ishlashi zarur ma'lumotlarni ortiqcha axborotdan ajratish ehtiyojini kuchaytiradi. Natijada ularda axborotni boshqarish bilan bir qatorda, vaqtni samarali taqsimlash, keraksiz informatsion ta'sirlarni cheklash va ma'lumotlarga tanqidiy munosabat bildirish ko'nikmalari ham rivojlanadi. Bu esa axborot iste'moli madaniyatining izchil shakllanishiga xizmat qiladi.

«Axborot integratsiyasi» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natijaning kuzatilishi ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$) turli manbalardan olingan ma'lumotlarni to'plash, o'zaro qiyoslash, umumlashtirish va yaxlit tizimga keltirish ko'nikmalarining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Ularning ilmiy-nazariy bilimlari va tadqiqot olib borish tajribasining ortishi turli mazmundagi axborotlarni solishtirish, ularning ishonchligini baholash hamda manipulyativ yoki yolg'on axborotni farqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, «axborot integratsiyasi»

ko'rsatkichining yuqoriligi 4-bosqich talabalarida axborot resurslari bilan ongli va tanqidiy ishlash mexanizmlari nisbatan shakllanganligini hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatda asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim psixologik zamin yaratilganligini ko'rsatadi.

2-jadval.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda «Informatsion faoliyatning motivatsion strukturasi bo'yicha so'rovnoma» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=340)

Omilar	Tahliliy fikrlash	Axborot boshqaruvi	Axborot integratsiyasi
Kommunikativ motivatsiya	0,34*	0,17	0,13
Relaksatsion motivatsiya	0,37*	0,21	0,15
Motivatsiyani qayta faollashtirish	0,15	0,19	0,35*
Kognitiv motivatsiya	0,18	0,38*	0,11
Kompensatsion motivatsiya	0,12	0,14	0,37*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda «Informatsion faoliyatning motivatsion strukturasi bo'yicha so'rovnoma»si omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «tahliliy fikrlash» omili «kommunikativ motivatsiya» ($r=0,34$; $p \leq 0,05$) va «relaksatsion motivatsiya» ($r=0,37$; $p \leq 0,05$) bilan, «axborot boshqaruvi» omili «kognitiv motivatsiya» ($r=0,38$; $p \leq 0,05$) bilan, «axborot integratsiyasi» omili esa «motivatsiyani qayta faollashtirish» ($r=0,35$; $p \leq 0,05$) hamda «kompensatsion motivatsiya» ($r=0,37$; $p \leq 0,05$) bilan ijobiy korrelyatsion aloqadorlikni namoyon etdi.

«Tahliliy fikrlash» va «kommunikativ motivatsiya» o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,34$; $p \leq 0,05$) talabalarning axborotni tahlil qilish qobiliyati ularning samarali muloqotga bo'lgan ehtiyoji bilan uyg'un rivojlanishini ko'rsatadi. Tahliliy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalar turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash, axborotning mazmunini anglash va asoslangan xulosalar chiqarish bilan birga, o'z fikrlarini mantiqiy hamda tushunarli ifodalashga moyil bo'ladilar. Muloqot jarayonida axborotni muhokama qilish, uning ishonchliligini baholash va o'zaro fikr almashish esa axborot iste'moli madaniyatining takomillashishiga xizmat qiladi. Demak, tahliliy fikrlashning kommunikativ motivatsiya bilan uyg'unligi axborotni ongli qabul qilish, qayta ishlash va boshqalarga asosli tarzda yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi.

«Tahliliy fikrlash» bilan «relaksatsion motivatsiya» o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ($r=0,37$; $p \leq 0,05$) axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida psixologik qulaylik hamda emotsional barqarorlikning muhimligini ifodalaydi. Katta hajmdagi axborotni uzluksiz tahlil qilish intellektual va emotsional zo'riqishni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli axborot oqimini me'yorlashtirish, keraksiz ma'lumotlarni cheklash va psixologik hordiqni ta'minlash tahliliy faoliyat samaradorligini saqlashga yordam beradi. Mazkur bog'lanish talabalarda axborot

iste'moli madaniyatini shakllantirishda nafaqat tanqidiy va tahliliy tafakkurni, balki informatsion zo'riqlashni boshqarish ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

«Axborot boshqaruvi» va «kognitiv motivatsiya» o'rtasida aniqlangan ijobiy bog'lanish ($r=0,38$; $p \leq 0,05$) talabalarning axborotni tartibga solish, saralash va maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish qobiliyati ularning bilishga bo'lgan ehtiyoji bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Kognitiv motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar axborotni shunchaki qabul qilish bilan cheklanmay, uni chuqur o'rganish, tizimlashtirish va ilmiy yoki kasbiy faoliyatda qo'llashga intiladilar. Axborotni boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi esa zarur manbalarni tanlash, ma'lumotlar oqimini tartibga solish va bilimlarni maqsadli o'zlashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur aloqadorlik axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda bilishga bo'lgan motivatsiyani qo'llab-quvvatlash muhim ekanini asoslaydi.

«Axborot integratsiyasi» va «motivatsiyani qayta faollashtirish» o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,35$; $p \leq 0,05$) talabalarning turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'zaro bog'lash, umumlashtirish va yaxlit bilimlar tizimiga keltirish qobiliyati ularning bilish faoliyatini davom ettirishga bo'lgan motivatsiyasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Axborotni tizimli ravishda integratsiyalash talabada yangi ma'lumotlarni izlash, mavjud bilimlarini boyitish va mustaqil izlanishni davom ettirish ehtiyojini kuchaytiradi. Natijada axborot bilan ishlash jarayoni izchil va maqsadga yo'naltirilgan tus olib, talabaning axborot iste'moli madaniyati yanada takomillashadi.

Shuningdek, «axborot integratsiyasi» bilan «kompensatsion motivatsiya» o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ($r=0,37$; $p \leq 0,05$) axborotni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayoni talabaning mavjud bilim yoki tajribadagi yetishmovchiliklarni yangi ma'lumotlar hisobiga to'ldirishga intilishi bilan bog'liqligini anglatadi. Talaba zarur axborotni turli manbalardan izlab topish, qiyoslash va o'z bilimlar tizimiga qo'shish orqali mavjud axborot bo'shliqlarini bartaraf etadi. Bu jarayon axborotdan maqsadli va ongli foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlab, axborot iste'moli madaniyatining psixologik tarkibiy qismlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3-jadval.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda Kellerman-Plutchikning «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so'rovnomasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=340)

Omilar	Tahliliy fikrlash	Axborot boshqaruvi	Axborot integratsiyasi
Inkor etish	0,14	0,16	0,17
Regressiya	0,15	0,13	0,34*
Kompensatsiya	0,18	0,17	0,13
Proyeksiya	0,36*	0,10	0,11
Intellektualizatsiya	0,17	0,35*	0,12

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

Navbatdagi bosqichda «Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda Kellerman-Plutchikning «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so'rovnomasi» natijalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «tahliliy fikrlash» omili «proyeksiya» ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) bilan, «axborot boshqaruvi» omili «intellektualizatsiya» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) bilan, «axborot integratsiyasi» omili esa «regressiya» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi.

«Tahliliy fikrlash» va «proyeksiya» o'rtasidagi ijobiy korrelyatsion bog'lanish ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) talabalarning axborotni tahlil qilish jarayonida shaxsiy kechinmalar, qarashlar va subyektiv baholarning ham muayyan darajada ishtirok etishini ko'rsatadi. «Proyeksiya» shaxsning o'ziga xos his-tuyg'u, fikr yoki xususiyatlarini boshqa insonlarga nisbat berish bilan tavsiflanadigan psixologik himoya mexanizmi hisoblanadi. Shu jihatdan, tahliliy fikrlash darajasining ortishi bilan axborotni baholash jarayonida shaxsiy tajriba va ichki munosabatlarning aks etishi ham kuzatilishi mumkin. Mazkur bog'lanish talabalarda axborotni qabul qilish va baholashda obyektiv mezonlarga tayanish, shaxsiy hissiy munosabatlarni anglash hamda ularni axborot mazmunidan farqlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda refleksiv va tanqidiy yondashuvning ahamiyatini oshiradi.

«Axborot boshqaruvi» va «intellektualizatsiya» o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) talabalarning axborotni saralash, tizimlashtirish va maqsadli boshqarish jarayonida emotsional ta'sirlardan nisbatan chetlashib, mantiqiy va ratsional yondashuvlardan foydalanishga moyilligini ifodalaydi. «Intellektualizatsiya» psixologik himoya mexanizmi murakkab yoki emotsional jihatdan zo'riqtiruvchi vaziyatlarni aqliy tahlil orqali nazorat qilishga intilish bilan tavsiflanadi. Talaba-yoshlar katta hajmdagi axborot bilan ishlash, ilmiy topshiriqlarni bajarish va turli manbalarni qiyoslash jarayonida dalillarga asoslangan qaror qabul qilishga intiladilar. Bu xususiyat axborot oqimini tartibga solish va uning mazmunini ratsional baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq «intellektualizatsiya»ning haddan tashqari kuchayishi hissiy kechinmalarni yetarli darajada anglamaslikka olib kelishi mumkin. Shu sababli «axborot boshqaruvi»ning samarali rivojlanishi ratsional tahlil bilan emotsional o'zini anglashning muvozanatli uyg'unligini talab etadi.

«Axborot integratsiyasi» va «regressiya» o'rtasidagi ijobiy korrelyatsion bog'lanish ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) axborotni umumlashtirish va yagona tizimga keltirish jarayoni ayrim holatlarda psixologik zo'riqish bilan birga kechishi mumkinligini ko'rsatadi. «Regressiya» murakkab yoki stressli vaziyatlarda shaxsning nisbatan sodda va avvalgi xulq-atvor shakllariga murojaat qilishi bilan tavsiflanadigan himoya mexanizmidir. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, turli manbalarni solishtirish va ularni yaxlit tizimga keltirish talabalardan sezilarli intellektual hamda emotsional faollikni talab qiladi. Bunday vaziyatlarda psixologik zo'riqishning ortishi ayrim regressiv reaksiyalarning namoyon bo'lishiga sharoit yaratishi mumkin. Mazkur aloqadorlik axborot integratsiyasi jarayonida o'zini nazorat qilish, emotsional barqarorlik va stressni konstruktiv boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi. Demak, talaba-yoshlarda axborot iste'moli

madaniyatini shakllantirishda axborotni integratsiyalash qobiliyati bilan bir qatorda, psixologik himoya mexanizmlarini anglash va ularni konstruktiv boshqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

4-jadval.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda «Addiksiyani aniqlash testi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=340)

Omilar	Tahliliy fikrlash	Axborot boshqaruvi	Axborot integratsiyasi
Internet va kompyuterga qaramlik	-0,32*	0,14	0,15
O'yinlarga qaramlik	0,13	-0,33*	0,16
Televizorga qaramlik	0,17	0,12	0,13
Qaramlikka umumiy moyillik	0,14	0,15	-0,37*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda G.V. Lozovayaning «Addiksiyani aniqlash testi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «tahliliy fikrlash» omili «internet va kompyuterga qaramlik» ($r = -0,32$; $p \leq 0,05$) bilan, «axborot boshqaruvi» omili «o'yinlarga qaramlik» ($r = -0,33$; $p \leq 0,05$) bilan, «axborot integratsiyasi» omili esa «qaramlikka umumiy moyillik» ($r = -0,37$; $p \leq 0,05$) bilan salbiy aloqadorlikni namoyon etdi.

«Tahliliy fikrlash» va «internet va kompyuterga qaramlik» o'rtasida aniqlangan salbiy korrelyatsiya ($r = -0,32$; $p \leq 0,05$) tahliliy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalarda internet va kompyuterdan haddan tashqari foydalanishga moyillik nisbatan past bo'lishini ko'rsatadi. Tahliliy fikrlash axborot manbalarining mazmuni, ishonchliligi va foydalilik darajasini baholash, virtual muhitda sarflanayotgan vaqtni nazorat qilish hamda onlayn faoliyatning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini anglash imkonini beradi. Shu sababli tahliliy tafakkuri rivojlangan talabalar axborotdan maqsadli foydalanish, zarur va ikkilamchi kontentni farqlash hamda virtual faoliyatni real hayotiy vazifalar bilan muvofiqlashtirishga ko'proq moyil bo'ladilar. Mazkur natija «tahliliy fikrlash» axborot iste'moli madaniyatining shakllanishida internet va kompyuterga qaramlik xavfini kamaytiruvchi muhim psixologik omillardan biri ekanini ko'rsatadi.

«Axborot boshqaruvi» va «o'yinlarga qaramlik» o'rtasidagi salbiy bog'lanish ($r = -0,33$; $p \leq 0,05$) axborot oqimini rejalashtirish, nazorat qilish va maqsadga muvofiq taqsimlash ko'nikmalari rivojlangan talabalarda o'yinlarga haddan tashqari berilish ehtimoli nisbatan pastligini anglatadi. «Axborot boshqaruvi» vaqt resurslarini oqilona taqsimlash, faoliyat ustuvorliklarini belgilash, o'quv va kasbiy vazifalarni rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq. Mazkur ko'nikmalar talabaga virtual o'yinlar bilan bog'liq faoliyatni nazorat qilish, ko'ngilochar kontentga sarflanadigan vaqtni me'yorlashtirish va real faoliyat maqsadlarini ustuvor qo'yish imkonini beradi. Demak, «axborot boshqaruvi» ko'nikmalarining rivojlanganligi o'yinlarga qaramlikka moyillikni pasaytirish bilan bog'liq bo'lib, axborot iste'moli

madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

«Axborot integratsiyasi» va «qaramlikka umumiy moyillik» o'rtasida aniqlangan salbiy korrelyatsiya ($r=-0,37$; $p\leq 0,05$) turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qiyoslash, umumlashtirish va yaxlit tizimga keltirish qobiliyati yuqori bo'lgan talabalarda turli addiktiv xulq shakllariga moyillik nisbatan past bo'lishini ko'rsatadi. «Axborot integratsiyasi» shaxsga kelib tushayotgan axborotni tanqidiy baholash, uni mavjud bilim va hayotiy maqsadlar bilan muvofiqlashtirish hamda mazmunan ahamiyatli ma'lumotlarni ajratib olish imkonini beradi. Mazkur ko'nikma sust rivojlangan hollarda talaba ko'ngilochar yoki emotsional jihatdan jozibador axborot oqimlariga haddan tashqari berilib ketishi mumkin. Aksincha, axborotni integratsiyalash qobiliyati yuqori bo'lgan shaxs ma'lumotlarni o'z ehtiyojlari va faoliyat maqsadlariga muvofiq saralaydi hamda ulardan ongli foydalanishga intiladi. Shu bois «axborot integratsiyasi»ning rivojlanganligi umumiy qaramlikka moyillikning pasayishi va axborot iste'moli madaniyatining takomillashuvi bilan bog'liq psixologik omil sifatida baholanishi mumkin.

5-jadval.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda «Internetga qaramlikni o'rganish so'rovnomasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=340)

Omillar	Tahliliy fikrlash	Axborot boshqaruvi	Axborot integratsiyasi
Internet va kompyuterga qaramlik	-0,36*	0,09	0,17
Doimiy internet foydalanuvchisi	0,08	0,07	0,11
Internetga ortiqcha ishtiyoq	0,05	-0,39*	0,18
Internetga to'liq qaramlilik	0,13	0,14	0,15

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» hamda «Internetga qaramlikni o'rganish so'rovnomasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «tahliliy fikrlash» omili «internet va kompyuterga qaramlik» ($r=-0,36$; $p\leq 0,05$) bilan, «axborot boshqaruvi» omili esa «internetga ortiqcha ishtiyoq» ($r=-0,39$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy aloqadorlikni namoyon etdi.

«Tahliliy fikrlash» va «internet va kompyuterga qaramlik» o'rtasida aniqlangan salbiy korrelyatsion bog'lanish ($r=-0,36$; $p\leq 0,05$) tahliliy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan talabalarda internet va kompyuter texnologiyalaridan me'yordan ortiq foydalanishga moyillik nisbatan pastligini ko'rsatadi. Tahliliy fikrlash talabaning axborot mazmunini baholashi, foydali va ikkilamchi manbalarni farqlashi hamda

virtual faoliyatning ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldindan anglashiga yordam beradi. Bunday talabalar onlayn resurslardan foydalanishda ularning mazmuni, ishonchliligi va amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratib, virtual muhitda sarflanadigan vaqtni ongli ravishda nazorat qilishga intiladilar. Aksincha, tahliliy fikrlash ko'nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi axborotni tanqidsiz qabul qilish, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa virtual resurslarda ortiqcha vaqt sarflash xavfini oshirishi mumkin. Demak, «tahliliy fikrlash»ning rivojlanganligi internet va kompyuterga qaramlikka moyillikning pasayishi hamda axborot iste'moli madaniyatining takomillashuvi bilan bog'liq muhim psixologik omil hisoblanadi.

«Axborot boshqaruvi» va «internetga ortiqcha ishtiyoq» o'rtasidagi salbiy bog'lanish ($r=-0,39$; $p\leq 0,05$) axborot oqimini rejalashtirish, saralash va nazorat qilish ko'nikmalari rivojlangan talabalarda internetdan me'yordan ortiq foydalanish ehtimoli nisbatan pastligini ko'rsatadi. Axborotni maqsadli boshqarish talabaga internetdagi faoliyatini aniq vazifalar bilan muvofiqlashtirish, keraksiz axborot oqimlarini cheklash hamda vaqt resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Mazkur ko'nikmalar yetarlicha rivojlanmagan hollarda esa ijtimoiy tarmoqlar, ko'ngilochar platformalar va boshqa virtual resurslarga ortiqcha qiziqish kuchayishi mumkin. Natijada o'quv faoliyati, real ijtimoiy munosabatlar va kundalik majburiyatlarga ajratiladigan vaqt qisqaradi. Shu jihatdan, «axborot boshqaruvi»ning rivojlanganligi internetdan ongli va me'yoriy foydalanishni ta'minlab, «internetga ortiqcha ishtiyoq»ning kamayishiga hamda talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dastur samaradorligi, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning ilmiy uslubiy asoslari va tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimlari kun sayin ortib borayotgan bir sharoitda, talaba-yoshlarning axborotdan ongli foydalanishi, ishonchli manbalarni saralashi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu psixologik model talabalarning axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uni shakllantirish jarayonida psixologik, pedagogik va kommunikativ yondashuvlar asos qilib olinadi. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish nafaqat nazariy tushunchalar va ilmiy asoslar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlanishi kerak. Amaliy asoslar axborot bilan ishlash jarayonini real hayotga tadbiq qilish, talabalarning media-savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

TALABA-YOSHLARDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MODELI

I

MODELNING TUZILISHI VA BOSQICHLARI



1 Diagnostik-boshlang'ich bosqich



2 Asosiy rivojlantiruvchi bosqich



3 Mustahkamlash bosqichi



4 Yakuniy-refleksiv bosqich

II

MODELNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI



Kognitiv mexanizm

Talabalarining axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.



Emotsional-motivatsion mexanizm

Talabalarda axborotdan ongli, maqsadli va samarali foydalanish motivatsiyasini kuchaytirish.



Ijtimoiy-psixologik mexanizm

Muloqot va ijtimoiy tarmoqlarda axborot iste'moli madaniyati, media etikasi va mas'uliyatli xulqni shakllantirish.



Amaliy mexanizm

Axborot xavfsizligi, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash bo'yicha amaliy mashqlar hamda profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish.

III

NATIJALARNI BAHOLASH



Boshlang'ich baholash

Talabalarining dastlabki axborot iste'moli madaniyati holatini aniqlash.



Oraliq baholash

Tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi va media savodxonlikdagi o'zgarishlarni monitoring qilish.



Yakuniy baholash

Talabalarda axborot iste'moli madaniyati shakllanganlik darajasini aniqlash.



Kutilayotgan natija: talabalarda tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, axborot xavfsizligi va mas'uliyatli axborot iste'moli xulqi shakllanadi.

1-rasm. Talaba yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish modeli.

6-jadval.

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyat darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma»si orqali olingan natijalarining qiyosiy tahlili (n=340)

№	Komponentlari	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba	Nazorat tajriba	Farqlanish	
			M ₁	M ₂	t	p
1.	Tahliliy fikrlash	Tajriba guruhi (n=120)	6,1	8,7	-2,6	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	6,4	6,8	-1,3	0,15
2.	Axborot boshqaruvi	Tajriba guruhi (n=120)	5,1	7,4	-2,7	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	5,5	5,7	-1,8	0,11
3.	Axborot integratsiyasi	Tajriba guruhi (n=120)	6,3	8,4	-2,2	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	6,7	7,1	-1,3	0,16

«Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyati darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» orqali olingan qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, barcha omillar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar aniqlandi. Jumladan, shakllantiruvchi trening dasturidan so'ng «tahliliy fikrlash» ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$), «axborot boshqaruvi» ($t=-2,7$; $p\leq 0,05$) hamda «axborot integratsiyasi» ($t=-2,2$; $p\leq 0,05$) omillari bo'yicha ijobiy o'sish qayd etildi.

«Tahliliy fikrlash» omili bo'yicha treningdan keyingi ko'rsatkichlarda statistik jihatdan ahamiyatli o'sish kuzatildi ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$). Mazkur natija talaba-yoshlarning axborotga yuzaki munosabat bildirishdan ko'ra, uning manbasi, ishonchliligi va dalillanganlik darajasini tahlil qilishga ko'proq e'tibor qarata boshlaganini ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan turli mazmundagi axborotlarni tanqidiy baholash, faktlarni tekshirish hamda noto'g'ri yoki manipulyativ xabarlariga nisbatan ehtiyotkor munosabat bildirish ko'nikmalari rivojlandi. Demak, «tahliliy fikrlash» ko'rsatkichining oshishi axborotni shunchaki qabul qilishdan ongli tahlil qilish, qiyoslash va ratsional saralashga o'tish bilan tavsiflanadi.

«Axborot boshqaruvi» omilida ham shakllantiruvchi treningdan so'ng ahamiyatli ijobiy o'zgarish aniqlandi ($t=-2,7$; $p\leq 0,05$). Bu talabalarning axborot oqimini rejalashtirish, vaqtni maqsadga muvofiq taqsimlash va zarur ma'lumotlarni saralash ko'nikmalari rivojlanganini anglatadi. Trening jarayonida ishtirokchilar axborot manbalarining foydalilik darajasini baholash, muhim ma'lumotlarni tezkor ajratish, turli resurslardan kelayotgan xabarlarini maqsadga muvofiq saralash bo'yicha amaliy mashqlarni bajardilar. Natijada internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda maqsadlilik kuchayib, o'quv faoliyatiga aloqador bo'lmagan axborotlardan chalg'ish holatlari kamaydi. Shu jihatdan, «axborot boshqaruvi»ning

rivojlanishi talabalarining axborot resurslaridan samarali va ongli foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

«Axborot integratsiyasi» omili bo'yicha ham trening mashg'ulotlaridan so'ng statistik jihatdan ahamiyatli o'sish kuzatildi ($t=-2,2$; $p\leq 0,05$). Bu talabalarining turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'zaro bog'lash, qiyoslash, umumlashtirish va yaxlit tizimga keltirish qobiliyatlari rivojlanganini ko'rsatadi. Trening davomida talabalar muayyan mavzuga oid axborot va faktlarni birlashtirish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni aniqlash hamda asoslangan umumiy xulosalar chiqarishga qaratilgan interaktiv mashqlarni bajardilar. Shuningdek, axborotni guruhlash, tizimlashtirish va qayta ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar ularning informatsion shovqinni kamaytirish hamda mazmunan muhim ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmalarini takomillashtirdi. Natijada talabalarda axborotni yaxlit mazmunda idrok etish, undan o'quv va kasbiy faoliyat maqsadlariga muvofiq foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Umuman, olingan natijalar shakllantiruvchi trening dasturi talaba-yoshlarda «tahliliy fikrlash», «axborot boshqaruvi» va «axborot integratsiyasi»ni rivojlantirish orqali axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda samarali bo'lganini ko'rsatadi.

6-jadval.

G.V.Lofovayaning «Addiksiyani aniqlash testi» orqali olingan natijalarining qiyosiy tahlili (n=340)

№	Komponentlar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba	Nazorat tajriba	Farqlanish	
			M ₁	M ₂	t	p
1.	Internet va kompyuterga qaramlik	Tajriba guruhi (n=120)	16,8	14,9	-2,3	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	16,3	15,7	-1,5	0,15
2.	O'yinlarga qaramlik	Tajriba guruhi (n=120)	17,2	14,0	-2,4	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	16,9	16,3	-1,8	0,12
3.	Televizorga qaramlik	Tajriba guruhi (n=120)	16,7	14,1	-2,7	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	16,4	16,2	-1,3	0,17
4.	Qaramlikka umumiy moyillik	Tajriba guruhi (n=120)	16,3	14,6	-2,6	0,05
		Nazorat guruhi (n=220)	15,8	15,2	-1,4	0,19

G.V. Lofovayaning «Addiksiyani aniqlash testi» orqali olingan qiyosiy natijalar tahliliga ko'ra, barcha omillar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, rivojlantiruvchi trening dasturidan so'ng «internet va kompyuterga qaramlik» ($t=-2,3$; $p\leq 0,05$), «o'yinlarga qaramlik» ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$), «televizorga qaramlik» ($t=-2,7$; $p\leq 0,05$) hamda «qaramlikka umumiy moyillik» ($t=-$

2,6; $p \leq 0,05$) ko'rsatkichlarining pasayishi qayd etildi. Mazkur natijalar trening dasturi talaba-yoshlarda turli ko'rinishdagi addiktiv xulq-atvorni kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ifodalaydi.

«Internet va kompyuterga qaramlik» omili bo'yicha treningdan so'ng statistik jihatdan ahamiyatli pasayish kuzatildi ($t = -2,3$; $p \leq 0,05$). Bu talabalarda onlayn faoliyatni rejalashtirish, virtual muhitdagi keraksiz axborotlarni saralash va internetdan maqsadli foydalanish ko'nikmalari shakllanganligi bilan izohlanadi. Trening jarayonida internet va kompyuter texnologiyalaridan o'quv, ilmiy hamda kasbiy maqsadlarda oqilona foydalanish, virtual faoliyat uchun sarflanadigan vaqtni nazorat qilish va real hayotiy majburiyatlarni ustuvor belgilashga alohida e'tibor qaratildi. Natijada ishtirokchilarda virtual va real faoliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash, internetdan me'yoriy foydalanish hamda barqaror axborot iste'moli madaniyatini namoyon etish ko'nikmalari rivojlandi.

«O'yinlarga qaramlik» omilida ham treningdan so'ng ahamiyatli pasayish kuzatildi ($t = -2,4$; $p \leq 0,05$). Talabalarda bo'sh vaqtni samarali tashkil etish, kompyuter va smartfon o'yinlariga sarflanadigan vaqtni nazorat qilish hamda muqobil faoliyat turlarini tanlash ko'nikmalari rivojlandi. Mashg'ulotlar davomida o'yinlarga me'yoridan ortiq berilishning o'quv faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanishga salbiy ta'siri muhokama qilindi. Shuningdek, hayotiy maqsadlarni belgilash, jamoaviy faoliyat, kitobxonlik, ilmiy izlanish va amaliy mashg'ulotlarga jalb etish orqali talabalarning o'yin faoliyatiga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga erishildi. Natijada o'yinlardan hordiq vositasi sifatida me'yorida foydalanish va real faoliyat maqsadlarini ustuvor qo'yish tendensiyasi kuchaydi.

«Televizorga qaramlik» omili bo'yicha ham statistik jihatdan ahamiyatli pasayish qayd etildi ($t = -2,7$; $p \leq 0,05$). Trening jarayonida televizor ko'rsatuvlarini uzoq vaqt davomida passiv kuzatishning vaqt resurslari, bilish faolligi va kundalik faoliyat samaradorligiga salbiy ta'siri yoritildi. Talabalarga televizordan foydalanishni me'yorlashtirish, mazmunan foydali dasturlarni tanlash hamda bo'sh vaqtni sport, kitobxonlik, ijtimoiy faoliyat va boshqa rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Natijada ularda passiv axborot iste'molini kamaytirish, media mahsulotlarini ongli tanlash va vaqtni maqsadga muvofiq tashkil etish ko'nikmalari shakllandi.

«Qaramlikka umumiy moyillik» omili bo'yicha aniqlangan statistik ahamiyatli pasayish ($t = -2,6$; $p \leq 0,05$) trening dasturining turli addiktiv xulq shakllarini profilaktika qilishga kompleks yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Talabalar o'zlaridagi qaramlikka moyillik belgilarini anglash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olishning konstruktiv usullarini o'zlashtirdilar. Trening davomida vaqtni rejalashtirish, o'zini nazorat qilish, psixologik zo'riqishni sog'lom usullar bilan kamaytirish, foydali faoliyatga yo'naltirish va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada talabalarda axborot va media vositalaridan tartibli, maqsadli hamda mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalari rivojlandi. Umuman, olingan natijalar rivojlantiruvchi trening dasturi talaba-yoshlarda addiktiv moyillikni kamaytirish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda samarali bo'lganini ko'rsatadi.

XULOSA

1. Talabalarda axborot iste'moli madaniyatining shakllanganlik darajasi turli axborot manbalarini izlash va ularning aniqligi hamda dolzarbligini baholash, birlamchi axborotni ikkilamchi ma'lumotdan farqlash, internet resurslaridan didaktik maqsadlarda foydalanish, virtual muloqotga qaramlikni nazorat qilish hamda ta'limiy axborotlarga motivatsion qadriyatli munosabat bildirish ko'nikmalarining rivojlanganligiga bog'liq ravishda differensial xususiyat kasb etishi dalillandi.

2. Talabalarining axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda virtual muloqotga xos «kommunikativ» va «relaksatsion motivatsiya»ning «tahliliy fikrlash» bilan, «kognitiv motivatsiya»ning esa kiberimmunitetni ta'minlovchi «axborot boshqaruvi» bilan o'zaro uyg'unligi informatsion faoliyat motivlarini kuchaytiruvchi muhim psixologik omil ekanligi isbotlandi.

3. Talabalarda ustuvor psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishi «tahliliy fikrlash»ning «proeksiya», «axborot boshqaruvi»ning «intellektualizatsiya», axborotni ijtimoiy integratsiyalashdagi qiyinchiliklarning esa «regressiya» bilan o'zaro aloqadorligi orqali axborot iste'moli madaniyatining differensial psixologik xususiyatlarini belgilashi aniqlandi.

4. Internet va kompyuterga qaramlikning kuchayishi talabalarda virtual axborotni tahlil qilish, axborot oqimini boshqarish va saralash ko'nikmalarining pasayishi, veb syorfingga ortiqcha berilish esa muloqotdagi psixologik to'siqlarning kuchayishi bilan bog'liqligi sababli axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish jarayonida addiktiv xulqqa maqsadli korreksion ta'sir ko'rsatish zarurligi asoslandi.

5. 4-bosqich talabalarida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish jarayonida kommunikativ motivatsiya yuqori darajada bo'lishi, o'zaro suhbatlarda fikr va g'oyalarni aniq ifodalash ehtiyojini kuchaytirishi, tanqidiy fikrlash, tezkor axborot almashinuvi hamda virtual muhitda madaniy xulq-atvorni rivojlantirishga yordam berishi kuzatildi.

6. Talabalarda virtual ma'lumotlarni izlash va saralash, ularning ahamiyatlilik darajasini hissiy jihatdan baholash, axborot bilan samarali ishlash hamda axborot xavfsizligini ta'minlovchi konstruktiv strategiyalarni tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish «kognitiv, emotsional, motivatsion va ijtimoiy psixologik» mexanizmlarni o'zaro uyg'unlashtirgan psixokorreksion ta'sir modelini qo'llash samaradorligini belgilashi tasdiqlandi.

7. Talaba-yoshlarda «tahliliy fikrlash», «axborot boshqaruvi» va «axborot integratsiyasi» ko'rsatkichlarining 4-bosqich talabalarida nisbatan yuqori namoyon bo'lishi ta'lim jarayonida orttirilgan ilmiy-amaliy tajriba, mustaqil axborot izlash va manbalarni tanqidiy baholash ko'nikmalarining rivojlanishi axborot iste'moli madaniyatining bosqichma-bosqich takomillashuviga xizmat qilishini tasdiqladi.

8. Talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan shakllantiruvchi trening natijasida «tahliliy fikrlash», «axborot boshqaruvi» va «axborot integratsiyasi» ko'rsatkichlarining oshishi bilan birga «internet va kompyuterga qaramlik», «o'yinlarga qaramlik», «televizorga qaramlik» hamda «qaramlikka umumiy moyillik» darajasining pasayishi kompleks

psixokorreksion ta'sirning axborotdan ongli, maqsadli va mas'uliyatli foydalanish xulqini rivojlantirishdagi samaradorligini dalilladi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi.

1. Ta'lim tizimida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus kurslar va o'quv modullarini joriy etish lozim, chunki bunday yondashuv talabalar orasida tanqidiy fikrlash, axborotni to'g'ri tahlil qilish hamda media-savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

2. Talabalar uchun interaktiv treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish zarur, chunki real hayotiy misollar va amaliy topshiriqlar orqali axborot bilan ongli ishlash, soxta ma'lumotlarni ajratish hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

3. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatish bo'yicha innovatsion metodikalar va virtual ta'lim platformalarini ishlab chiqish kerak, chunki bu talabalar orasida axborotdan ijodiy foydalanish, mustaqil izlanish olib borish hamda axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish madaniyatini rivojlantirishga imkon beradi.

4. Talabalarning axborot iste'moli madaniyatini baholash va rivojlantirishga qaratilgan psixologik diagnostika tizimlarini yaratish lozim, chunki ushbu tizim orqali axborot iste'moliga oid individual xulq-atvor shakllari aniqlanib, ularga mos ravishda psixologik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5. Ijtimoiy tarmoqlarda va raqamli muhitda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish bo'yicha maxsus ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqish zarur, chunki bu talabalar orasida noto'g'ri axborot manbalariga berilib ketish, manipulyativ va yolg'on ma'lumotlarga ishonish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

6. Talabalarning media-ma'lumotlarga bo'lgan munosabatini yaxshilash uchun axborot filtrlash va axborotni saralash bo'yicha dasturlarni yo'lga qo'yish kerak, chunki bu ularga foydali va ishonchli ma'lumotlarni ajratib olish hamda ortiqcha informatsion shovqindan qochish imkonini beradi.

7. Axborot iste'molining psixologik omillarini hisobga olgan holda, stress va informatsion charchoqning oldini olish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim, chunki haddan tashqari axborot yuklamasi talabalar psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

8. Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishda universitetlar, OAV vakillari, IT-mutaxassislar va psixologlar bilan hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur, chunki turli sohalaridagi ekspertlar ishtirokida o'tkaziladigan treninglar, ochiq munozaralar va tajriba almashish platformalari talabalar axborot iste'moli madaniyatini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.P.08.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАМАЗОНОВ ЖАХОНГИР ДЖАЛОЛОВИЧ

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ
КУЛЬТУРЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ У
СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ**

19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Бухара – 2026

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована под номером B2025.4.DSc/P274 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:	Ганжиев Феруз Фуркатович доктор психологических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Улугова Шалола Муслидиновна доктор психологических наук (DSc), профессор Баратова Дилафруз Шарифовна доктор психологических наук (DSc), профессор Элмуратова Айсулу Усаховна доктор психологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ часов 18 августа 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.P.08.10 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11. (Тел.: +99865221-29-14; факс: +998365 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № 01/1004 (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11. (Тел: +998365221-25-87).

Автореферат диссертации разослан « 3 » август 2026 года

(реестр протокола рассылки № 31 от « 3 » август 2026 года



А.М. Назаров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

И.Ш. Рустамов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), доцент

А.А. Хусейнова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой системе образования переход к информационному обществу, внедрение в практику современных и креативных технологий использования медиасредств в различных сферах образования и общественной жизни проявляется как одна из приоритетных тенденций. Согласно исследованию, проведенному организацией Global Media and Information Literacy (MIL) Assessment Framework, 67% молодых людей в возрасте 16-25 лет получают ежедневную информацию в основном через социальные сети, но только 34% из них обладают навыками проверки и сравнительного анализа источников информации. По данным «Digital News Report» Института Reuters за 2021 год, 79% молодых людей в возрасте 18-24 лет отслеживают ежедневные новости через социальные сети, и только 29% из них регулярно проверяют достоверность источников информации. Поэтому международные организации реализуют гранты, проекты и образовательные программы, направленные на развитие цифровой и медиаграмотности у студенческой молодежи, критический анализ информации и формирование культуры потребления информации¹.

В мировых научно-исследовательских центрах и образовательных учреждениях особое внимание уделяется изучению психологических особенностей формирования культуры потребления информации у студенческой молодежи. По данным исследований TALIS (Teaching and Learning International Survey) и статистических данных за 2024 год, количество активных пользователей интернета в мире превысило 5,5 миллиарда, значительную часть из которых составляет молодежь. Также в недавних исследованиях отмечается, что 71% молодых людей в возрасте 15-24 лет используют интернет до 8-10 часов в день. Данная ситуация усиливает необходимость научных исследований, направленных на разработку современных психологических механизмов формирования культуры потребления информации у студенческой молодежи, духовно-просветительскую и идеологическую подготовку их к информационной безопасности, а также совершенствование системы психопрофилактических мер².

В нашей республике в последние годы особое внимание уделяется обеспечению различных сфер общества современными информационно-коммуникационными технологиями, повышению информационной грамотности, формированию безопасной информационной среды, защите молодежи от негативного информационного воздействия и предотвращению интернет-зависимости среди студентов. Вместе с тем, создаются необходимые организационно-правовые основы для подготовки высококвалифицированных кадров и совершенствования профессиональной подготовки специалистов отрасли. В качестве приоритетного направления

¹ <https://www.unesco.org/>

² <https://www.oecd.org/>

определены «Системное реформирование медиасферы, повышение эффективности передачи информации и подготовка высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда». Это расширяет психолого-педагогические возможности развития медиаграмотности и культуры потребления информации у студентов высших учебных заведений³.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации широкомасштабных стратегических мер, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениях №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 27 июля 2017 года, № ПП-4947 «О мерах по дальнейшему совершенствованию информационной безопасности во всемирной сети Интернет» от 5 сентября 2018 года и других нормативных документах.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

Научные исследования, направленные на формирование культуры потребления информации у студенческой молодежи, проводятся в следующих ведущих образовательных организациях и научно-исследовательских центрах мира, в том числе: Гарвардский университет, Отделение Berkman Klein Center for Internet & Society, (США), Стэнфордский университет, Отделение Digital Media Initiative (США), Отделение Media Lab Массачусетского технологического института (MIT), (США), University of Pennsylvania (Annenberg School for Communication) (США), Oxford University, Oxford Internet Institute (Великобритания), London School of Economics (LSE) (Великобритания), University of Cambridge (Великобритания).

В мире на основе проведенных исследований по формированию культуры потребления информации у студентов получены следующие научные результаты: разработаны стратегии формирования онлайн-культуры студенческой молодежи путем изучения психологического воздействия потребления информации в цифровой среде Гарвардский университет, Berkman Klein Center for Internet & Society (США); разработаны инновационные подходы, направленные на укрепление культуры потребления

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6083381>

⁴ <https://cyber.harvard.edu/>, <https://www.stanford.edu/>, <https://www.media.mit.edu/>, <https://www.oii.ox.ac.uk/>, <https://www.lse.ac.uk/>, https://ec.europa.eu/info/horizon-europe_en, <https://www.annenberg.upenn.edu/>, <https://www.nyu.edu/>.

информации у студентов путем анализа психологических аспектов использования цифровых медиа средств Стэнфордский университет, Digital Media Initiative (США); разработаны психологические механизмы потребления информации у студенческой молодежи посредством новых технологий и интерактивных платформ Массачусетский технологический институт (MIT) Media Lab (США); проанализированы процессы коммуникации и психологические реакции студентов в цифровой информационной среде University of Pennsylvania (Annenberg School for Communication) (США); изучены механизмы формирования виртуальной культуры студентов в условиях цифровой трансформации Оксфордский университет, Oxford Internet Institute (Великобритания); разработаны стратегии, связанные с информационным потреблением студентов на стыке социальной психологии и цифровой культуры; изучены психологические особенности студенческой молодежи в цифровой информационной и медиасреде University of Cambridge (Великобритания).

В мире проводятся научные исследования по проблемам социально-психологических аспектов потребления информации и формирования виртуальной культуры у студентов по следующим приоритетным направлениям, в том числе анализ динамики изменения эмоциональных состояний студентов, стресса, тревоги и уровня благополучия, возникающих в процессе использования онлайн-ресурсов, методы самовыражения в интернете и социальных сетях, создание личного бренда и изучение формирования социальной идентичности, устранение таких проблем, как социальная изоляция и одиночество, наряду с процессами социальных связей, сотрудничества и интеграции, возникающими в онлайн-среде, развитие у студентов навыков критической оценки информации, выявления фейковых новостей и выделения достоверных источников, совершенствование уровня психологической адаптации студентов в условиях онлайн-образования и дистанционной работы.

Степень изученности проблемы. В нашей стране проблемы изучения психологических особенностей формирования культуры информационного потребления изучали ученые-педагоги-психологи С.Н.Арифханова, Э.А.Дусанов, С.Ю.Кулатова, О.Ш.Мухтаров, Д.Г.Мухамедова, У.Х.Сайитова, З.Т.Нишоновна, Ж.Ж.Облокулов, У.Д.Кодиров, С.Б.Косимова, И.И.Рахимова, О.М.Зарипов, С.Д.Шарапова и другие⁵.

